Turamov Muhammadzohid Rustamjon o'g'li	
OTM talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosida ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirishning zamonaviy metodlari	605
Sobirov Zahriddin Sadriddinovich	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda kiriyativlikni rivojlantirish	609
Qo'chqarov Mirzavali Qo'zibayevich	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	613
Yaqubova Dinora Bahodirovna	
Zamonaviy ta'lim tizimida AR (Augmented Reality) texnologiyalarining qo'llanilishi	617
Abdumo'minov Burxonjon Sunnatillo o'g'li	

The Role of Psychological Support in the Formation of Students' Socio-Emotional Competence in Preschool Education	622
Kamoliddinova Diyora Jaloliddin qizi	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi	626
Xudoynazarova Moxira Xakimovna	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini metodlar orqali rivojlantirish	629
Ro'zmetov Ravshan Sharipbayevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini tarbiyalash	633
Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna	
Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy darsliklar tuzilishi va mazmuni	638
Po'latova Marjona Inomjon qizi	
STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	643
Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish	646
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari	650
Gaparova Mastona Safaraliyevna	
Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish	654
Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi	
Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari	657
Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra	
Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes	665
Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi	
Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish	668
Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li	
Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyaning bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati	672
Usmonov Umid Allayorovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish	676
Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinovna Sadriiddinova	
Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida	681
Ergashev Nozim Nabiyeovich	
Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers	684
Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi	
Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash	687
Karimova Charos Abduhalim qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari	691
Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi	
"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili	695
Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich	
Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar	699
Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	705
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari	710
Eshnazarova Farida Jo'raqulovna	
Ta'lim islohotlari sharoitida genderga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari	714
Yaxyayeva Sojida Abduraximovna	
Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi	718
Berdiyeva Malika	
Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish	721
Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi	



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari	731
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar	736
Arabova Muxiba Bazarovna	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	



“KASBIY MA’NAVIYAT” FANI BO’LAJAK PEDAGOGLARDA MA’NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI INTENSIV RIVOJLANTIRISH OMILI

Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich
Samarqand davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini uyg'unligini ta'minlash masalasi milliy tarbiya siyosati hamda zamonaviy pedagogik innovatsiyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimi islohotlari, xususan Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi, pedagogik yo'nalishdagi mutaxassislar uchun ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Maqolada "Kasbiy ma'naviyat" fanining pedagogik ahamiyati hamda uning mazmuni bo'lajak pedagoglarning kasbiy dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy tayyorgarligini shakllantiruvchi nazariy-amaliy omil sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagog, "Kasbiy ma'naviyat" fani, tayanch axloqiy kompetensiyalar, Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi, kasbiy fazilatlar klasteri, pedagogik texnologiya, milliy qadriyatlar, shaxsiy sifatlar, mutaxassis tayyorlash, pedagogik model.

Abstract: This article analyzes the issue of ensuring the harmony between professional and personal qualities of future teachers from the perspective of national educational policy and modern pedagogical innovations. Educational reforms implemented in the New Uzbekistan, particularly the Concept of Continuous Spiritual Education, emphasize the development of spiritual and moral competence as a priority task for specialists in the pedagogical field. The article substantiates the pedagogical significance of the subject "Professional Spirituality" and reveals its content as a theoretical and practical factor in shaping the professional worldview and spiritual and moral readiness of future teachers.

Key words: future pedagogue, subject "Professional spirituality", basic moral competences, concept of continuous spiritual education, cluster of professional qualities, pedagogical technology, national values, personal qualities, professional training, pedagogical model.

Аннотация: В статье анализируется проблема обеспечения гармонии профессиональных и личностных качеств будущих педагогов с точки зрения национальной образовательной политики и современных педагогических инноваций. Реформы системы образования, реализуемые в Новом Узбекистане, в частности Концепция непрерывного духовного образования, определяют развитие духовно-нравственной компетентности как приоритетную задачу для специалистов педагогического направления. В статье обосновывается педагогическая значимость дисциплины "Профессиональная духовность", а также раскрывается её содержание как теоретико-практического фактора формирования профессионального мировоззрения и духовно-нравственной подготовки будущих педагогов.

Ключевые слова: будущий педагог, дисциплина "Профессиональная духовность", базовые нравственные компетенции, концепция непрерывного духовного образования, кластер профессиональных качеств, педагогическая технология, национальные ценности, личностные качества, профессиональная подготовка, педагогическая модель.

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi davlat siyosati darajasida belgilandi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasida pedagogik yo'nalish bo'yicha kadrlar tayyorlashda shaxsiy fazilatlar, ijtimoiy kompetentlik, kasbiy mas'uliyat, tadbirkorlik, vatanparvarlik, irodalilik, axloqiy soflik kabi tayanch qadriyatlarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan.

Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlar klasteri, ularning antipodlari, kasbiy odob, shaxsiy kommunikativ, kreativ, tarbiyaviy va tashkiliy qobiliyatlarini o'rganish, shuningdek, bo'lajak pedagog shaxsiyatidagi insonparvarlik, fidoiylilik, halollik, irodalilik kabi fazilatlarini shakllantirish o'qituvchining

kasbiy faoliyatida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashdagi roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kompetentli yondashuvning o'ri, kasbiy ma'naviyatga oid fanlar, ustoz–shogird an'analari, milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi talaba shaxsiyatida mustahkam ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga qanday xizmat qilishi tadqiq qilinishi zarur. Shu bilan birga, oliy pedagogik ta'lim yo'nalishlarida kasbiy va ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar uyg'unligiga erishish strategik ahamiyatga ega.

Har bir bo'lajak pedagog o'quvchi yoshlarda milliy g'oya, ideallar, axloqiy immunitet, iroda va intizomni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kasbiy ma'naviyat bilan shaxsiy fazilatlar uyg'unligini ta'minlash pedagogika fani oldidagi dolzarb masalaga aylandi.

Shu nuqtayi nazardan qarganda, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda kasbiy tayyorgarlikning faqat metodik bilimlar bilan cheklanmasligi, balki o'qituvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy barkamolliqi, kommunikativ ko'nikmalar, muomala madaniyati, javobgarlik, intizom, fidoiylilik kabi fazilatlarga ega bo'lishi ta'lim sifatini oshirishning asosiy mezonini sifatida belgilanmoqda. Zero, har bir o'qituvchi shaxsiyatida kasbiy va axloqiy sifatlar uyg'unligini shakllantirish masalasi har tomonlama ilmiy tahlil etilishini talab qiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim tizimi modernizatsiyasining samaradorligi nafaqat talabalarining oliy ta'lim muassasalarida oladigan bilim, ko'nikma va malakalarini, balki ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlari hamda kompetensiyalari darajasini oshirishga ham qaratilgan. Shundan kelib chiqib, bo'lajak pedagoglarga xos kasbiy ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv texnologiyalar asosida rivojlantirish davlatning oliy pedagogik ta'lim muassasalariga ijtimoiy buyurtmasiga aylandi. Zero, bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-axloqiy kompetensiyalari kelajakda undagi kasbiy ma'naviyat subyekti sifatida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonning huquqiy-me'yoriy talablaridan kelib chiqib, Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi asosida yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish talab etilmoqda. Shu munosabat bilan "Kasbiy ma'naviyat" fani mazmunini takomillashtirish va uni amaliy pedagogik vazifalarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini shakllantirish masalasi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va milliy tarbiya konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi. R. Mahmudovning "Kasbiy ma'naviyat" asarida kasbiy faoliyat va shaxsiy fazilatlar uyg'unligi pedagog shaxsining tayanch sifati sifatida talqin qilinadi. Muallif kasbiy ma'naviyatni faqat axloqiy tushuncha emas, balki mutaxassisning kasbiy mas'uliyati va ijtimoiy faoliyatini belgilovchi kompleks kompetensiya sifatida asoslaydi.

Pedagog shaxsining kasbiy shakllanishida axloqiy fazilatlar, ijtimoiy mas'uliyat va kommunikativ madaniyatning o'ri H. Abdulkarimov tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olim o'qituvchining professiogrammasi orqali kasbiy ma'naviyatni tarbiyachilik qobiliyati, ijodkorlik va reflektiv tafakkur bilan chambarchas bog'laydi. M. Mavrulovning milliy qadriyatlarga bag'ishlangan ilmiy ishlari esa pedagogik tayyorgarlik jarayonida milliy-ma'naviy omillarning uzviyligini ta'kidlab, ta'lim jarayonida qadriyatlar asosida kompetensiya shakllantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham pedagoglarni kasbiy-axloqiy tayyorlash masalasi muhim yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. M. Kuranova, A. Kosheleva va Sh. Sabirova tadqiqotlarida an'ana va innovatsiyaning uyg'unligi ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirish omili sifatida ko'rsatiladi. J. Mayr tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa pedagog tayyorlash tizimida shaxsiy fazilatlar, kasbiy identifikatsiya va axloqiy mas'uliyat kelajak o'qituvchining muhim ko'rsatkichlari sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuvlar "Kasbiy ma'naviyat" fanining bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirishdagi ilmiy-metodik ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar pedagogika va ma'naviy tarbiya sohasiga oid ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish hamda amaliy pedagogik tajribalarni umumlashtirish orqali olindi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar va talabalar ishtirokida kuzatuv va suhbat usullaridan foydalanildi. Olingan empirik ma'lumotlar qiyosiy, mantiqiy va tavsifiy tahlil asosida qayta ishlanib, kasbiy ma'naviyat fanining bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlandi. Natijalarni tahlil qilishda umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi yillarda kuchli ma'naviyat sohibi bo'lgan, yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlashning nazariyasi va metodik masalalariga tobora katta e'tibor qaratilmoqda. Buning bir misoli tariqasida 2021-yildan oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichi rejasiga "Kasbiy ma'naviyat" fani kiritilganini keltirish mumkin. Ushbu yangi fan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori asosida joriy etildi. Darhaqiqat, "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishda "Kasbiy ma'naviyat" fanining ahamiyati nihoyatda katta.

Respublika oliy o'quv yurtlarining barcha yo'nalishlarida "Kasbiy ma'naviyat" fanini o'qitishning sababi shundaki, inson qaysi kasb mutaxassisi bo'lishidan qat'i nazar, ma'naviyatli bo'lishi shart. Negaki, o'qituvchimi, shifokormi, qisqasi, oliy ma'lumotli har qanday mutaxassis insonlar bilan muomala qiladi, muloqotda bo'ladi va insonlar bilan ishlaydi. Demak, "kasbiy ma'naviyat" deganda qaysi kasbda faoliyat ko'rsatishidan qat'i nazar, mutaxassis albatta bilimli, fahm-farosatli, o'z kasbiga fidoiy, birga ishlayotgan hamkasblariga mehribon, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar, o'z kasbining fidoyisi va bilimdoni bo'lishi talab etiladi. Ayni vaqtda yuksak kasbiy ma'naviyatga ega mutaxassislardan kutiladigan ijobiy xislatlar, fazilatlar, xususiyatlar hamda ularning klasteri shakllanmoqda.

Shu bois yangi "Kasbiy ma'naviyat" fanining dastlabki dasturlari ishlab chiqilib, asosiy vazifalar sifatida jumladan quyidagilar belgilandi:

- kasbga fidoiylik va sadoqatlilikni tarbiyalash;
- bilimli, yetuk mutaxassis, salohiyatli kasb egasini tayyorlash;
- kasb va uning turlari hamda kasb va hunarlarning o'ziga xos jihatlarini o'rganish;
- bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyat uchun puxta, chuqur nazariy asoslar bilan ta'minlash;
- har bir kasb sohasining o'ziga xos odob qoidalari bilan tanishtirish;
- mutafakkirlar merosidagi kasb-hunarga oid ma'naviy meroslar bilan tanishtirish;
- yurtimizdagi ustoz-shogird an'analari bilan tanishtirish;
- kasblar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganish;
- jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishga hissa qo'shish;
- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini kasbiy ma'naviyat orqali ta'minlash;
- har bir soha mutaxassislarning o'ziga xos kasbiy ma'naviyati bo'lishini asoslash;
- har bir kasb egasini el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlariga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga hissa qo'shuvchi yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash;
- jahon tamaddunidagi yangi, sharaflil kasblar haqida ma'lumot berish;
- kasb egasining o'z kasbiga halol munosabatini (halollik "vaksinasi"ni) shakllantirish va boshqalar¹.

Ushbu yangiliklar boshqa soha mutaxassislari qatori bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini tarbiyalashning yangi kognitiv manbalari yaratilayotganini hamda ushbu innovatsiyalardan ma'naviy-axloqiy tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini intensiv rivojlantirish texnologiyasini yaratish o'qituvchi professiogrammasini ham nazarda tutishni talab etadi. Bu borada pedagogika fanlari nomzodi, dotsent H. Abdukarimov shunday ta'kidlaydi: "O'qituvchining kasbiy faoliyatiga tarbiyachilik qobiliyati, kommunikativ, informatsion, yo'naltiruvchi, rivojlantiruvchi, gnostik (tadqiqotchilik), tashkilotchilik, perseptiv, didaktik, safarbar etuvchi, kreativ qobiliyatlar zarur bo'ladi. Bunda professiogrammaga zamonaviy pedagog shaxsining modeli sifatida qaraladi."² Olim o'qituvchidagi eng muhim shaxsiy sifatlar qatoriga insonparvarlik, maftunkorlik, bolajonlik, jozibadorlik, mehribonlik, ko'rkamlik, samimiylik, ziyolilik, madaniylilik, rahmdillik, odillik, jonbozlik, mehnatsevarlik, iymonlilik, kamtarlik, halollik, vijdonlilik, andishalilik, irodalilik, salohiyatlilik, do'stga sodiqlik, jasurlik, raqobatbardoshlik kabi fazilatlarini kiritadi.

¹ Маҳмудов Р. "Касбий маънавият". Ўқув қўлланма.-Тошкент: 2023. 150 бет. 9-бет.

² Ҳ.Абдукаримов. Касбий педагогик фаолият. Т., "Ўқитувчи". 2010.103-б.



Ushbu fazilatlar majmui shaxsiy va xarakter xususiyatlarini o'zida mujassam etishi bilan ajralib turadi. Ayni paytda kasbiy ma'naviyat har bir kasbning axloqini va muloqot prinsiplarini belgilashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois o'qituvchining kasbiy sifatleri qatoriga bilimdonlik, ijtimoiy faollik, bolajonlik, adolatlilik, o'z kasbini sevish, shirinsuxanlik, o'z-o'ziga talabchanlik, vazminlik, yangilikka intiluvchanlik, o'zini o'zi boshqara olish, ijodkorlik, hissiyotga berilmaslik, o'z kasbining ustasi bo'lish, yumorga boylik, e'tiborlilik, nafosatlilik, topqirlik, fidoiylilik, suxandonlik, kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash, tashkilotchilik, o'z-o'zini tahlil qilish, ishbilarmonlik, refleksiv qobiliyatga ega bo'lish kabi sifatlar kiradi³.

Muallifning mazkur yondashuvida o'qituvchiga xos kasbiy sifatlarining aksariyati o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga, ushbu sifatlar, xislatlar va fazilatlarining barchasi har bir o'qituvchida to'liq namoyon bo'lishi shart emas. Ayrim hollarda bir necha salbiy xislatlar ham ustun bo'lishi mumkin. Demak, kasbiy ma'naviyat nuqtayi nazaridan qaralganda, har bir pedagogda kasbiy fazilatlar tarkibi nisbiy, degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, oliy pedagogik ta'limda ijtimoiy kompetentlikka asoslangan yondashuv hozirgi ijtimoiy hayotning real talablari, davlat ta'lim siyosati hamda bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoniga qo'yilayotgan talablarning ifodasidir. Zero, O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan kompetentli yondashuvga o'tish tendensiyasi talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini intensiv rivojlantirish texnologiyalarining "Kasbiy ma'naviyat" fani mazmuni modernizatsiyasiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagogning kasbiy va shaxsiy fazilatleri uyg'unligini shakllantirish zamonaviy pedagogik ta'limning eng muhim strategik vazifalaridan biridir. Bunda kasbiy hamda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlanishi zarur. Zero, har bir o'qituvchi faqat o'z fani doirasida cheklangan mutaxassis emas. U:

- yoshlarda iroda, xarakter, intizom va vatanparvarlikni shakllantiruvchi;
- milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni singdiruvchi;
- jamoaning ma'naviy yetakchisi;
- ma'naviyat va ma'rifatning tashabbuskor targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida "Kasbiy ma'naviyat" fanining mazmunini takomillashtirish, yosh pedagoglarda ma'naviy-axloqiy hamda kasbiy kompetensiyalar uyg'unligini rivojlantirish, ularni barkamol ziyoli, ma'rifatparvar va pedagog sifatida tayyorlash oliy pedagogik ta'lim siyosatida ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Махмудов Р. "Касбий маънавият". Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2023. – 150 бет. – 9-бет.
2. Абдукаримов Ҳ. Касбий педагогик фаолият. – Тошкент: "Ўқитувчи", 2010. – 103-бет.
3. Маврулова М. Миллий қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт. – Тошкент: Зарварақ, 2022. – 45-бет.
4. Kuranova M., Kosheleva A., Sabirova Sh. Interrelation of traditions and innovations in implementation of moral education // Journal of Critical Reviews. 2020. – Vol. 7, Issue 4. – Pp. 408–415. DOI: 10.31838/jcr.07.04.79. ISSN 2394-5125.
5. Mayr J. LehrerIn werden in Österreich. Empirische Befunde zum Lehramtsstudium // Erziehung und Unterricht. 2009. – No. 1–2. – S. 18.

3 Абдукаримов Х. Касбий педагогик фаолият. -Т.: "Ўқитувчи", 2010. 110-111-бетлар.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.